

**Buxoro davlat universiteti O'zbek
adabiyoti kafedrası professorı,
filologiya fanlari doktori Axmedova
Shoira Ne'matovna taqrizi ostida**

Nizomova Kamola Vohid qizi
BuxDU 1-kurs magistri
Email:kamolanizomova46@gmail.com

TOSHPO'LAT AHMAD BAG'ISHLOVLARINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxorolik shoir Toshpo'lat Ahmad ijodidagi bag'ishlovlar tahlil qilindi. Ularni g'oyaviy-semantik guruhlariga bo'lib tasniflashga, badiiyatini o'rganishga harakat qildik. Zamonaviy adabiyotdagi bag'ishlovlarining ayrim nazariy xususiyatlarini shoir ijodi misolida ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: bag'ishlov, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot, lirik tur, mazmun, shakl, sarlavha, his-tuyg'u.

Kirish: Adabiy tur va janrlar shakl va mohiyat kasb etgan holda uchga bo'lib o'rganilishi ma'lum. Ularning har biri katta olam, bu olamda esa biz kashf etgan va kashf etmagan yaratilishlar bisyor. Buxorolik iste'dotli shoir Toshpo'lat Ahmad qalamiga mansub bag'ishlovlarni mana shunday lirik yaratilishlar safida ko'rsak bo'ladi. Biz ularga tadqiqotchi nazari bilan tahlil qilishga kirishamiz

Materiallar va uslublar: Bag'ishlovlar shoir shaxsiyati bilan uzviy bog'liq holda yuzaga kelar ekan, ularni o'rganishdan oldin ijodkor hayotiga bir nazar tashlash o'rinli bo'ladi. Shoir o'zi aytganidek, "II jahon urushining uchinchi yili yozning qizg'in pishiqshik kunlaridan birida Shofirkon tumanining Denav qishlog'ida tug'ilganman"¹. Maktabni kumush medal bilan tamomlab, Samarqand dorilfuninida o'qigan shoir umrining qizg'in damlari aynan shu maskan bilan bog'liq. Chunki Samarqandda Toshpo'lat Ahmad umriga tatigulik bilimlarni egalladi. G'afur G'ulom, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Sharof Rashidov, Shuhrat singari mashhur o'zbek adiblari bilan ko'rishdi, ularning suhbatida bo'ldi. Shoir ilk mashqlarini Toshkentga yuborganda ustoz Shuhratdan xat kelganini va uni sentabrda bo'lib o'tadigan shoir va yozuvchilar seminariga taklif etganini eslaydi. Bu mashqlar katta ijodning boshlanishi edi. Farzand sifatida o'z ona vatanini madh etgan Toshpo'lat Ahmad sermazmun va sermahsul ijod qildi, juda ko'p insonlar bilan tanishdi, ayni paytda ularga bag'ishlab she'rlar ham bitdi.

Natijalar va muhokamalar: Toshpo'lat Ahmad tartib bergan kitoblarda bag'ishlovlarining salmog'i anchagina. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan bag'ishlovlar ijodkorning "Umrim gulobi", "Imon qal'asi", "Gavhari jonim" to'plamlaridan o'rin olgan.

Lirik turning bag'rida yuzlab janrlar yashaydi. Ularning ba'zilarida shakl ustuvorlik qilsa, ba'zilarida mazmun asosiylik kasb etadi. Bag'ishlov mazmunga qarab belgilanadigan janrlarga kiradi. Unda shoir g'oyasi mujassam, xoslik va atalganlik mavjud. Toshpo'lat Ahmad bag'ishlovlarida ham bu jihatlar ko'zga tashlanadi. Shoir ilhom o'laroq she'r bitar ekan, sarlavhadan so'ng zamona qahramonlari, dilga yaqinlarining nomlarini qayd etib qo'yadi. Biz ularni atalganlik yuzasidan quyidagicha tasnifladik:

¹ T.Ahmad. Izlaganim sensan, ona-Buxoro! Buxoro nashriyoti 2007-yil, 129-bet.

- 1) oila a'zolariga bag'ishlangan bag'ishlovlar : “Baxtigul”(qizimga), “Gavhari jonim”(onasiga), “Ming shukur...”(nevaram Orifjonga);
- 2) do'stlariga: “Bir oqshom zavqi” (do'stim Raxmatulloaga), “Shahardan zerikkanda”(do'stim Samandarga), “Mehrni mamlakat bilsak”(do'stim Shodmonga);
- 3) qardosh xalq vakillariga: “So'zlasin Fuzuliy bobom”(ozar xonandasi Zaynab Xonlarovaga), “Ikki minora”(I.Kaipbergenov va I.Yusupov og'alarimga);
- 4) fan arboblarga: “Zanjirband sher” (S. Ayniy xotirasiga), “Posbon”(Shuhrat domlaga), “Alpomish” (professor O.Safarovga), “Ildizlar” (urug'shunos Shodmonjon Mavlonovga);
- 5) xalq shoirlariga: sakkizliklar (A.Oripovga), “Rumiya sig'ingil”(Jamol Kamolga), “Tug'yoni bor...”(shoira Malika Mirzo qiziga);
- 6) turli kasb egalariga: “Saxovat”(dehqon Fayziyevga), “Toqi zargaron” (buxoroning zardo'z qizlariga), “So'niq yulduzlar”(munajjim Ehsonga);
- 7) hayotdagi tanishlariga: “Kam ko'rdim”(M.Xolovga), “Shukrona” (S.Husenovga), “Deydilar”(Sh.N.Davirovga).

Bag'ishlov atamasi bevosita mazmun bilan bog'liq holda o'rganilsada, u turli shakllarda bo'lishi mumkin. Masalan, ijodkor o'zi yozgan qasidasini, marsiyasini, to'rtligini yoki butun boshlik romanini ham kimgadir bag'ishlashi mumkin. Bu jihatdan ularning shakllari xilma-xil. Toshpo'lat Ahmad bag'ishlovlarida ham mana shunday xilma-xillik ko'zga tashlanadi. Shoirning

-barmoq vaznidagi: “Baxtigul”(qiziga),

-sakkizlik shaklidagi: A.Oripovga,

-g'azal: “Bozor yo'li bor”(muarrif F.Qosimovga),

-doston: “Usta Hofiz va Shinavanda shoh”(O'lmas Rasulga) shaklidagi bag'ishlovlari mavjud. Ularning barchasida qandaydir hayot haqiqati singdirilgan. Misralar o'quvchi so'zlashini kutmay, o'zi so'zlayotgandek go'yo:

Nodonlar bilmaski,

Haqiqiy o'zbek

Bir o'zi yemaydi topgan nonini

Asal nima bo'пти, do'st-qardoshlik deb,

Qirq birda...tikkandi hatto jonini...(1,128)

O'zbekning o'zligi barchaga ma'lum, xalqimiz jahon urushlarida betakror jasorat va mardlik ko'rsatgan, shoir esa o'zbekning qanaqaligini bilmaysanmi, unda 1941-yil voqealarini esla deyapti. Bu parcha “Saxovat” she'ridan olingan bo'lib, sarlavhadan so'ng shoir “xalqimning chin “Xotamtov”i, shofirkonlik “Asal bola”-dehqon Fayziyevga bag'ishlayman” deya shoir g'oyasining sababchisini eslaydi. Butun 4 band davomida saxovat so'zi, bu so'zning o'zbek xalqiga qanchalar mos ekanligi ochib berilgan. “Saxovat” she'rida shoir barcha qofiyalar ustida qattiq turmasa-da, uning ba'zi qofiyalari topib ishlatilgan jarangdorligi, ohangdorligi kuchli bo'lgan baytlari ham mavjud.

O'lim-ku haq, hamma o'tadi,

Lekin ona qolsa netadi?

Nahotki yer to'ymay ketadi?

Onajonim- ko'zda mujgonim,

Munisginam, obro'yim-shonim.(2,45)

“Gavhari jonim” nomli ushbu she'r Toshpo'lat Ahmadning onasiga bag'ishlangan, shoir sarlavhadan so'ng “mehribon onam Qurbonoy Qo'chqor qizi xotirasiga” deb qayd qiladi o'z maqsadini. She'rda ohangdorlik kuchli, bu ohangdorlikni qofiyalar ta'minlab bergan, 8 baytning har biri 5qatordan tashkil topgan bo'lsa, har bir bayt o'z ichki qofiyalariga va bandlar ham o'z qofiyadosh so'zlarga ega. 9 bo'g'inli barmoqda, 4+5 turoqlanishdagi she'r o'quvchiga ham tushunarli. Ushbu she'riy na'muna boshqalardan o'ziga xos qofiyalarga egaligi, misralar tuzilishi, ritm, xalqona ohangga egaligi bilan ajralib turadi.

Shoir bag'ishlovlarining ayrimlarida talmehlardan ya'ni tarixiy nomlar va joylardan unumli va o'rinli foydalangan:

Bir tomon Erjon botir,

Bir yonda Manas tursin.

Bir tomon Go'ro'g'libek,

Bir yonda Avas tursin.

Avvalgiday o'rtada

O'zing oqsoqol bo'lg'in.(1,149)

Bu she'r nomi “Alpomish” va u professor Oxunjon Safarovga atalgan. Mashhur professor Oxunjon Safarovning fandagi xizmatlari beqiyos, olim umrining sarhisobi o'laroq yuzlab kitoblar, minglab ilmiy maqolalar yozgan. Ustoz tashkil etgan ilmiy adabiyotshunoslik maktabining davomchilari bugun ham bu yo'lni davom ettirishyapti. Olimning Alpomishga mengzalishi besabab emas, “Alpomish” dostoni nafaqat o'zbek balki qardosh xalqlar uchun ham qadrli. Baxshilar mahorati tekshirilganda, “Alpomish” dostonini kuylab berish soroladi. U ayni paytda murakkab va boshdan oxir milliylik, qadriyat ildizlari bilan bog'liq. Oxunjon Safarov ham folklorshunoslikda juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib brogan. Xalq dostonlarini, xalq og'zaki ijodi namunalari o'rgangan. Olimning Alpomishga nisbat berilishi ham shu sababdan.

Ramziylik va ko'chimplarni yana ko'plab she'rlarda kuzatish mumkin. “Ikki minora” she'rida ham ramziylik mavjud. Bu she'rni ijodkor To'lapbergan Kaipbergenov va Ibrohim Yusupovlarga bag'ishlaydi. Nomidan ham bilish mumkinki, ikki minora qoraqalpoqning mashhur ikki ijodkori:

Men ikki og'omning bo'yiga boqsam,

Esimga tushadi shahrim minori.

Bilsam: shular ekan qoraqalpoqning

Amir minoriyu, ko'rkam chinori (2,30)

Toshpo'lat Ahmad bag'ishlovlarining ayrimlarida atalganlik yaqqol bilinib turmasa-da, ularda shunday o'xshatishlar qo'llanilgan-ki, ular boshqa ijodkorlarda uchramaydi:

Hayot-ummondagi oltin bir kema,

Seno son yo'llarni aslo yo'l dema,

Unga ilashgaydir kim pok-beta'ma,

Rumiy etagin o'p-kulgay iqboling,

Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin diling.(1,97)

Bu parcha "Rumiya sig'ingil" she'ridan olingan bo'lib, u shoir Jamol Kamolga bag'ishlangan. Unda shoir hech narsaga o'xshatilmaydi, ramziylik yo'q, lekin she'r g'oyasi chiroyli, unda hayotni ummondagi oltin bir kemaga o'xshatilishdek topilmalar mavjud yoki

Quvonchmi, armonmi umr degani?

O'ylasang, bir o'rik pishig'iday gap,

Goh anglab yetasan ushbu dunyoni,

Goh esa o'tasan bag'ringni o'rta. (1,143)

"Mehrni mamlakat bilsak..." sarlavhali she'rda olingan bu misralardagi shoir topilmasi-umrning bir o'rik pishig'iga o'xshatilishi ya'ni juda qisqa sifatini shu ikki so'z mazmuniga singdirilishi. Bu o'xshatishlar shoir uslubining o'ziga xosligidan darak.

Zamonaviy adabiyotda bag'ishlovlar yangicha mazmun va shakl kasb etdi ya'ni mumtoz adabiyotda debochalar tarkibida kelgan bag'ishlanmalar hozirda alohida ajralib chiqdi. Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'zatida bag'ishlovga uch xil ta'rif berilgan, ulardan ikkinchisi va uchinchisi- zamonaviy adabiyot bag'ishlovlariga to'g'ri keladi. Ikkinchi ta'rif-asarning muallif hurmati, e'zozi, minnatdorligi, muhabbati va hokazo tuyg'ular ifodasi sifatida biron-bir shaxs, uning xotirasi, muayyan bir joy, muassasa, voqea-hodisa va shu kabilarga bag'ishlanishi. Masalan, "Zanjirband she'r" (S.Ayniy xotirasiga). Uchinchi ta'rif- lirik janr, biron-bir shaxsga murojaat shaklida yozilib, ko'proq uni ta'riflash, unga munosabatni ifodalashga qaratilgan she'riy asar.²

Bellinskiy lirik asarga shunday munosabat bildirgan: "Asarda his bor ekan, fikr bo'lishi muqarrarligi ham juda tushunarli bir hol. Tabiiyki, his teran bo'lgan joyda fikr ham teran bo'ladi va aksincha... Shoirning boshida tug'ilgan fikr, aytish mumkinki, uning jismiga turtki berib, hayajonga soladi, qoniga o't yoqib, ko'ksida tipirchilab uyg'onadi".³ She'r yaratilishi shoirda shu yo'sinda kechsa, bag'ishlovlar yozilishiga sabab bo'lgan o'y-fikr va his-tuyg'u oddiy she'rga

² D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati, Toshkent, Akademiya nashri-2013

³ J.Kamol. Lirik she'riyat. T., Fan-1980

nisbatan ancha kuchli. Bu his-tuyg'u masalasida ham mumtoz va zamonaviy bag'ishlovlarda yuksalish borligiga guvoh bo'lamiz.

Xulosa. Biz mustaqillik davri adabiyoti namunalaridan Toshpo'lat Ahmad qalamiga mansub bag'ishlovlarni tahlil qilish jarayonida yuqoridagi jihatlar ko'zga tashlanishini ko'ramiz. Ular zamonaviy bag'ishlovlarga xos o'ziga xosliklarga ega. Shoir bag'ishlovlarning ichida g'oya, mazmun, shakl, badiiylik jihatdan ustuvorliklar bo'lsa-da, ularning ba'zilarida qofiyabozlikka, shaklga e'tibor berilgan holatlar ham uchraydi. Shunday bo'lsa-da, Toshpo'lat Ahmad uslubi o'ziga xos, qalami chiroyli. U shunchaki yozmaydi, u jo'shib, birovlariga ichi kuyib, hamdardlikda, birov uchun quvonib, baxtli bo'lib, birovning xizmatlarini madh etib, go'zal Turkiston, jannatmakin O'zbekiston farzandlaridan faxrlanib bag'ishlovlar bitganini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshpo'lat Ahmad "Umrin gulobi" Toshkent, Navro'z-2013.
2. Toshpo'lat Ahmad "Gavhari jonim" A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti-2002.
3. Toshpo'lat Ahmad "Izlaganim sensan, ona-Buxoro!" Buxoro nashriyoti-2007.
4. Dilmurod Quronov va bosh. Adabiyotshunoslik lug'ati Toshkent, Akademnashr-2013
5. Jamol Kamol. Lirik she'riyat. T., Fan-1980
6. Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi Toshkent, Sharq-2002.